

## NUTQNING PRAGMATIK TAHLILIGA DOIR AYRIM KUZATISHLAR

*Shahobitdinova Shohidaxon Hoshimovna,  
Filologiya fanlari doktori, professor,  
Andijon davlat universiteti  
[shohidas3@mail.ru](mailto:shohidas3@mail.ru)*

**ORCID ID: 0000-0003-2476-0648**

*Matkarimova Ashurxon Ismoilovna,  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,  
Andijon davlat chet tillari instituti  
[sanam\\_2004@mail.ru](mailto:sanam_2004@mail.ru)*

**ORCID ID: 0000-0003-4483-9337**

**Annotatsiya:** *XX asrda tilshunoslikning rivojlanishi tilni o'rganishda antropotsentrizm g'oyasining ustuvor mavqeyini tan olishga va shu bilan bog'liq holda inson faoliyatini uning tilida namoyon bo'ladigan izlarini tadqiq qilishga olib keldi. Antropotsentrik lingvistik paradigma tilning faoliyat ko'rsatish hamda so'zlovchining aniq maqsadlariga muvofiq til birliklaridan foydalanish qonuniyatlarini aniqlash tomon siljishi bilan tavsiflandi. Chunki antropotsentrizm xalq hayoti, madaniyati, mentaliteti, ijtimoiy norma va urf-odatlarini o'zida aks ettira oladigan muhim soha ekanligini to'liq namoyon qildi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola hurmatni shaxsning muloqot va uni amalga oshirish me'yorlari haqidagi bilimlarini tartibga soluvchi, interaktivlarning kommunikativ xatti-harakatlarida amalga oshiriladigan va shaxslararo muloqotning samaradorligini belgilaydigan nutqiy akt sifatida o'rganishga bag'ishlanadi.*

**Kalit so'z va iboralar:** *nutq, muloqot, pragmatika, belgi, til vositalari, hurmat.*

**Аннотация:** *Развитие языкознания в XX веке привело к признанию приоритетного положения идеи антропоцентризма в изучении языка и в связи с этим к изучению следов человеческой деятельности, проявившихся в его языке. Антропоцентрическая языковая парадигма характеризуется движением к определению закономерностей языковой деятельности и использованию языковых единиц в соответствии с конкретными целями говорящего. Потому что антропоцентризм в полной мере продемонстрировал, что это важная сфера, способная отражать жизнь, культуру, менталитет, социальные нормы и обычаи людей. С этой точки зрения данная статья посвящена изучению уважения как речевого акта, формирующего знания человека об общении и нормах его реализации, реализующегося в коммуникативном поведении взаимодействующих людей и определяющего эффективность межличностного общения.*

**Ключевые слова и выражения:** *речь, коммуникация, прагматика, признак, языковые средство, уважения.*

**Annotation:** *The development of linguistics in the 20th century led to the recognition of the priority position of the idea of anthropocentrism in the study of language and, in this regard, to the study of traces of human activity manifested in its language. The anthropocentric language paradigm is characterized by a movement towards defining the patterns of linguistic activity and the use of linguistic units in accordance with the specific goals of the speaker. This is because anthropocentrism has fully demonstrated that this is an important area capable of reflecting the life, culture, mentality, social norms and customs of people. From this point of view, this article*

*is devoted to the study of respect as a speech act that forms a person's knowledge of communication and the norms of its implementation, realized in the communicative behavior of interacting people and determines the effectiveness of interpersonal communication.*

**Key words and phrases:** *speech, communication, pragmatics, sign, expressing means, respect.*

Jahon tilshunosligi tilni shaxs, uning ongi, tafakkuri, ma'naviy va amaliy faoliyati kontekstida o'rganish bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan madaniyatlarning hamkorlikning ortib borayotgan ko'lamini inobatga olgan tarzda, kommunikativ jarayon bo'lgan hurmat nutqi va xushmuomalalik ifodalash masalasini o'rganish mavzusiga ko'plab mutaxassislar tomonidan qiziqish ortib bormoqda, bu esa muayyan tilning ona tilida so'zlashuvchilar lingvokulturologik hamjamiyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. Tadqiqotlar tahlili hamda xulosalari ham tillarning rivojlanishiga oid umumiy va xususiy holatlar, ayniqsa, til vositalarining so'zlovchilar tomonidan o'z madaniyati va foydalanish doirasidan kelib chiqqan holda qo'llanilishi, to'g'ri va muayyan ma'no ifodalanishi bilan aloqador tarzda katta amaliy ahamiyatga ega.

Hurmat o'zbek tilshunosligida kategoriya sifatida maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, grammatika masalalari bilan shug'ullangan tilshunos olimlar, jumladan, A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev o'z tadqiqotlarida tildagi ayrim morfologik birliklar, xususan, *-lar* ko'plik qo'shimchasining hurmat, ulug'lash, xushmuomalalik ifodalash jihatlarini o'rganganlar [G'ulomov, 1944; Rahmatullayev, 1973]. Hurmat ma'nosining egalik affikslari vositasida ifodalanishi haqidagi ilmiy qarashlarni E.V.Sevortyan, A.N.Kononov, F.Abdullayev, K.Nazarov kabi olimlarning tadqiqotlarida ko'ramiz [Sevortyan, 1960; Kononov, 1960; Abdullayev, 1961; Nazarov, 1963]. A.Hojiyev, Y.Tojiyev, S.Usmonov, R.Qo'ng'urov, R.Ikromova kabi olimlar esa hurmat ma'nosini modal ma'no ifodalovchi ayrim vositalar qatorida sanab, "modal forma", "subyektiv baho formasi", "kichraytirish-erkalash vositalari" kabi atamalar bilan yuritish haqida fikrlarini bildirganlar [Hojiyev, 1979; Tojiyev, 1992; Usmonov, 1964; Qo'ng'urov, 1980; Ikromova, 1985].

Hurmat ifodalovchi morfologik vositalar boshqa kategoriya vositalari bilan qorishiq holda o'rganildi. G'.Zikrillayev esa buni fe'l so'z turkumi doirasida shaxs-son kategoriyasiga bog'lab o'rgangan [Zikrillayev, 1990]. H.Hojiyeva hurmat ma'nosi tadqiqiga semantik maydon nazariyasi asosida yondashgan hamda uning ayrim umumiy jihatlariga to'xtalib o'tgan [Hojiyeva, 2001]. Bundan tashqari, N.Svinina, A.Razdorskiy, Y.Potapova [Svinina, 2008; Razdorskiy, 1981; Potapova, 1995] kabi olimlar biznes muloqot va biznes tilini qo'llashda hurmat kategoriyasidan foydalanishni tahlilga tortganlar.

Bizningcha, hurmat har bir milliy madaniyatga xos bo'lgan qiymat xushmuomalalik mazmuni, vaziyatning tabiati va maqomining ijtimoiy parametrlari va aloqadorlik o'rtasidagi masofaning turli xil shakllari bilan belgilanadi. Xushmuomalalik esa insondagi tug'ma qobiliyat yoki instinktga bog'liq bo'lmagan, aksincha, u insondagi muayyan ijtimoiy-madaniy va tarixiy sharoitlarda shakllanadigan bilim hamda ko'nikmalar ijtimoiylashuvi jarayonining bir qismi ekanini ta'kidlash joiz. Jamiyatning oqilona fikrlay oladigan, voyaga yetgan va yetuk a'zolari ijtimoiylashuv jarayonida ushbu jamiyat tomonidan qabul qilingan va ma'qullangan odob-axloq qoidalarini, shu jumladan, lingvistik qoidalarini o'rganishlari lozim. Hurmat va xushmuomalalik insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning muhim atributidir. Shu nuqtayi nazardan, biz ko'pincha odob-axloq qoidalari yoki insonlar tomonidan belgilangan xulq-atvor qoidalari haqida gapiramiz.

Madaniyatlar aralashuvi muhitida tilda va kishilar tafakkurida yangi shakl va munosabatlar paydo bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida uning yo'nalishlarini katta ikki yo'nalishdagi ta'sirlarda kuzatish mumkin. Bu yo'nalishlar diniy tushuncha, asosan, islom dinidan ta'sirlanish va yevropa madaniyatiga intilishdan iborat bo'lib, til va madaniyatda boshqa-boshqa tomonlarni hosil qiladi. Buni muloqot jarayonlarida paydo bo'layotgan yangi shakllardan sezish mumkin. Masalan, salomlashishda "Assalomu alaykum", "salom" shakli me'yor hisoblanadigan bo'lsa, "Assalomu alaykum va rahmatulloh", "Assalomu alaykum va rahmatullohi va barokatuh", suhbat orasida "In shaa Alloh", "Ma shaa Alloh", "Subhanalloh"

jumlalari, xayrlashishda “Alloh rozi bo‘lsin”, “Allohga omonat”, “O‘zi rozi bo‘lsin”, “Yana ko‘rishish nasibu ro‘zi aylasin”, “Alloh panohida bo‘ling” shakllari diniy yondashuvning kuchayganligini, “sava”, “privet”, “hay”, suhbat orasida “okey”, “yess”, xayrlashishda “chao”, “poka”, “ok”, “bye” shakllarining qo‘llanilishi yevropa madaniyatiga ergashish natijasi sanaladi.

Bularning barchasi umumiy til madaniyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Tilning umumiy madaniyat ta’sirlarida o‘zgarishi uning to‘plash, jamlash funksiyasida aks etadi. Tilning bu funksiyasi akkumulyativ (to‘plash) funksiyasidir. Shuningdek, til estetik vazifa bajarish xususiyatiga ham ega.

So‘zlovchining nutq jarayoniga munosabatida axborot-ma’lumot bilan birga munosabat shakllari ham ifodalanadi. Ularga hurmat/hurmatsizlik, muhabbat/nafarat, ulug‘lash/yerga urish, ijobiy yoki salbiy munosabat, do‘stlik/dushmanlik, yoqlash/qoralash kabilarni misol qilish mumkin. Bu jihatlar til bilan birga tildan tashqari vositalarda ham namoyon bo‘ladi va jamiyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlar muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarga oydinlik kiritish bilan birga keyingi o‘zaro munosabatlarni boshqaradi. Bunda pragmatika yetakchi o‘rinni egallaydi.

XVII-XVIII asrlarda jamiyatda o‘rta tabaqa vakillari yuqori tabaqa vakillarining odobini o‘zlashtira boshlaganliklari kuzatildi. Bu jarayon bir tomondan, aristokratlar sifatidagi moddiy ne‘matlarga ega bo‘lish istagining ifodasi bo‘lsa, boshqa tomondan, turmush tarziga, jumladan, oilaviy munosabatlar, kechki ovqat vaqti, ovqatlanish madaniyati, kiyinish uslubi va nutq madaniyatiga taqlid qilishni o‘z ichiga olgan. Natijada, o‘rta tabaqa vakillarining yuqori tabaqa vakillariga o‘xshashga intilishi, hukmron tabaqa vakillarining jamiyatdagi rolini o‘zgartirib, ularning xulq-atvori va jamiyatdagi tutumlarini keng ommaga namuna qilib ko‘rsatdi. Bu esa ularning nutqiy faoliyatida ham o‘z aksini topdi.

O‘rta tabaqa vakillaridagi ma’lum estetik, intellektual didlar va sivilizatsiya qadriyatlarining tarqalishi jamiyatning ijtimoiy tuzilishini o‘zgartirdi, uni mustahkamladi va barcha qatlamlarni yaqinlashtirishga xizmat qildi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning muvozanati va barqarorligini saqlashda o‘zaro

majburiyatlar, ya'ni har bir shaxsning jamiyat oldidagi burchi va boshqa odamlar oldidagi majburiyatlari borligini anglash g'oyasi juda muhim edi. Aynan shu zaruriyat nutqda hurmat va xushmuomalalikning pragmatik xususiyatini tadqiq qilish ehtiyoji bilan bog'liqlikni yuzaga chiqardi.

Lingvistik ifodalarda hurmat shakli ko'proq kishilarga murojaat shakllari orqali namoyon bo'ladi. Shuning barobarida o'zbek tilida murojaatning ijtimoiy mohiyati masalalarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda mavzuning ilmiy asoslarini uchratish mumkin. Tilshunos olim X.Doniyorov o'tgan asrning ikkinchi yarmida o'zbek tilining qipchoq dialekti xususiyatlarni tadqiq etishda masalaning bu jihatiga katta ahamiyat qaratgan [Doniyorov, 1979].

Keyinchalik tadqiqotlar va ularning tekshiruv obyekti o'zbek tilining murojaat shakli, muloqot odobi va tildagi barqaror nutq odatlari masalalarini aynan aks ettira boshladi. Bunday tadqiqotlar sirasiga S.Mo'minov, Sh.Iskandarova, Z.Akbarova [Mo'minov, 2000; Iskandarova, 1993; Akbarova, 2015]larning izlanishlarini misol qilish mumkin. Bu borada Sh.Rahmatullayevning izlanishlarida o'zbek tilida mavjud murojaat shakllari rus tili murojaat shakllari bilan o'zaro qiyosiy tadqiq etilgan [Rahmatullayev, 1993].

Hurmatning ifodalanishi faqat qo'shimchalar bilangina anglashilmay, balki u yuqori sathlarda ham kuzatiladi. Shu bois tilshunos olimlar orasida uning modal ma'no ifodalovchi kategoriya ekanligini isbotlashga qaratilgan bir nechta yondashuvlar mavjud. Xususan, S.Usmonov, A.Hojiyev, R.Qo'ng'urov, Y.Tojiyev, R.Ikromova [Usmonov, 1964; Hojiyev, 1979; Qo'ng'urov, 1980; Tojiyev, 1992; Ikromova, 1985]lar hurmat ma'nosining ifodalanishini modallikning bir turi deb ta'riflaydilar. Bunda hurmat shaklining o'zaro munosabatlar zamirida shakllanishiga asos bor. Munosabatning ifodalanishi esa modallikni hosil qiladi. Bir qarashdan hurmat mazmuni faqat morfologik sathning o'zi bilangina chegaralanmaydi; u hatto eng quyi sath bo'lgan fonologiyada va til sathlariga qo'shimcha tarzda paralingvistika hamda pragmatikada ham ifoda shakllariga ega.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tilda hurmat va xushmuomalalikni biror sath doirasida qamrab bo‘lmas ekan. Shuning uchun uni maydon nazariyasi asosida tadqiq etilgan bir qator ishlar mavjud. Hurmat shakllari deyarli tilning barcha sathida uchraganligi uning aynan maydon nazariyasiga mos kelishini ko‘rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуллаев Ф. К вопросу о генезисе притяжательных и падежных аффиксов // Вопросы узбекского языка и литературы. – Ташкент, 1961.
2. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари. –Тошкент: Академнашр, 2015. – Б. 132.
3. Дониёров Х. Қипчок диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 112.
4. Зикриллаев Ғ.Н. Феълнинг шахс, сон ва хурмат категорияси системаси. – Тошкент: Фан, 1990.
5. Икромова Р. Ўзбек тилида отларнинг синтетик, аналитик ва функционал формалари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 120.
6. Исқандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – Б. 24.
7. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М., 1960.
8. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол.фан.д-ри... дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – Б. 57.
9. Назаров К. Притяжательные аффиксы в узбекских народных говорах: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1963.
10. Потапова Я.М. Норма делового стиля в японском языке. Дисс. канд. филол. наук. –М., 1995.
11. Раздорский А Национально-культурные особенности коммуникации в японском устном диалоге. Дисс. канд.филол. наук. – М., 1981.
12. Свирина Н. Деловой стиль японского языка в устной форме. Дисс. канд филол. наук. – М., 2008.
13. Севортян Э.В. К проблеме частей речи в тюркских языках // Вопросы грамматического строя. – М., 1960.
14. Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент: ТошДУ, 1992. – Б. 68.
15. Усмонов С. Ўзбек тилида сўзларнинг грамматик формалари // Низомий номидаги ТДПИ илмий асарлар. – Тошкент, 1964. 42-китоб. – Б. 126-127.
16. Қўнгуоров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.165.
17. Гуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. – Тошкент, 1944; Рахматуллаев Ш. Хурмат формаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973.
18. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Тошкент, 1979. – Б. 80.
19. Ҳожиева Ҳ. Ўзбек тилида хурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фанлари номзоди ... дис. – Самарқанд, 2001.